

OILA VA MTT HAMKORLIGIDA TARBIYA SAMARADORLIGI

Yusupova Shaxzoda Sobir qizi

Qo'qon universiteti Maktabgacha ta'lim yo'naqlishi 2-kurs talabasi

Sanginova Gulnoza Boxodirovna

O'qituvchi

shaxzodayusupova29@mail.ru<https://doi.org/10.5281/zenodo.20157105>**Annotatsiya:**

Ushbu tezisdagi oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti (MTT) o'rtasidagi hamkorlikning bola tarbiyasidagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, bolalarning har tomonlama rivojlanishida ota-onalar va pedagoglar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning o'rni, ijtimoiylashuv jarayoni hamda samarali ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish masalalari tahlil qilingan. Oila va MTTning uzviy aloqasi bolaning shaxs sifatida shakllanishida muhim omil ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar:

Oila va MTT hamkorligi, maktabgacha ta'lim tizimi, bola tarbiyasi, tarbiya samaradorligi, ota-onalar bilan hamkorlik, pedagog-tarbiyachi faoliyati, bola rivojlanishi, ijtimoiylashuv jarayoni, ta'lim-tarbiya jarayoni, individual yondashuv, ijtimoiy ko'nikmalar, kommunikativ muloqot, pedagogik hamkorlik, oilaviy muhit, ta'lim sifati, bolalarning har tomonlama rivojlanishi, ota-onalar faolligi, tarbiyaviy ishlar, metodik yordam, jamiyat va ta'lim integratsiyasi.

KIRISH.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyachilar bilan oila o'rtasidagi aloqalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Chunki, bolani qanday muhitda rivojlanayotganini bilish har ikkala tomon uchun muhimdir.

Vigotskiy shunday degan, - Bolaning eng yaqin rivojlanish zonasi deb oilani nazarda tutgan va aniq faktlarda isbotlagan. bola oilasidan ajralib MTTga borganda unga mas'ul shaxslar bolani o'rganish uchun oila bilan hamkorlik qilishi muhim.

Bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash uchun maktabgacha ta'lim tashkiloti ota-onalar bilan o'zaro hamkorlikning quyidagi shakllarini tashkil qilishi mumkin:

- ota-onalarning maktabgacha ta'lim tashkiloti borasidagi fikrlarini hisobga olish;
- ilk rivojlanish masalalarida ota-onalarga bilim berish;
- ota-onalarni o'quv-tarbiyaviy jarayonda faol qatnashishga jalb etish;
- ota-onalarning tashkilot hayotida ishtirok etish borasidagi tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash.

Mana shu qarashlar qarorda belgilanib qo'yilgan. [1]

Maktabgacha Ta'lim Tashkilotining maqsadi: bolalarni o'qitish, tarbiyalash, qarab turish va parvarish qilish jarayonida paydo bo'ladigan tomonlarning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini sezilari amalga oshiruvchi ta'lim - tarbiya jarayonini olib borishdir. [2]

Ota-onalar va oilaning boshqa a'zolari bilan mazmunli kommunikativ muloqotni tashkil qilishda maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglari yetakchi rol o'ynaydi. Ammo bu rol zamonaviy oilaning xususiyatlari, xislatlari va unda bolalarni tarbiyalashning pedagogik shart-sharoitlarini yaxshi bilgan holdagina muvaffaqiyatli amalga oshiriladi. Bundan tashqari bolalarda mas'uliyat hissini shakllantirishda maktabgacha ta'lim tashkilotining quyidagi

vazifalari ham alohida o'rin egallaydi. Ya'ni: - ta'lim-tarbiya berish jarayonida bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'limning ustuvorligi; - ota-onalarga pedagogik-metodik maslahatlar uyushtirish; - oiladagi ta'lim va tarbiyaning eng yaxshi ekskursiv tajribalarini o'rganish; - ota-onalarni maktabgacha ta'lim tashkiloti ijtimoiy hayoti bilan tanishtirish. [3]

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligi tasarrufidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni sifatli maktab ta'limiga tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Buning isboti o'laroq 2018-yilda maktabgacha ta'lim sohasida bolalar qamrovi 34,4% ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatgich 2019-yil yarim yilligi yakunida 40,5% ni tashkil etdi. Bola tarbiyasida oilaning o'rni beqiyos. Oila bolaga qattiq ta'sir ko'rsatadi, uni atrofdagi hayotga moslaydi. Jamiyatda esa tarbiya faqat ota-onaning shaxsiy ishigina bo'lib qolmasdan, balki ularning ijtimoiy burchi hamdir. Ota-onalarni tashkiliy ishlarga jalb etish masalan, yumshoq o'yinchoq tayyorlash, suv va qum bilan o'ynashi uchun o'yinchoqlar yasash, maydonchalarni ko'kalamzorlashtirish uchun jihozlar tayyorlash muhim tadbirlardir. Bunday tanlovlar tarbiyachining yillik ish rejasida o'z aksini topgan bo'lishi kerak. Tanlov shartlarini umumiy ota-onalar yig'ilishlarida muhokam qilish va ma'qullab olish kerak. Faol ishtirokchi ota-onalarga tashakkurnoma e'lon qilish, bu borada buvi-yu, bobolarning ham maslahatlariga quloq tutmoq lozim. Maktabgacha ta'lim tashkilotining oila bilan ishlash tizimida aniq maqsad mazmun bo'lishi kerak. Ota-onalar bilan hamkorlik borasida avvalo erishilgan yutuq va tajribalarning natijalarini tahlil qilib, bolaning ijobiy tomonlarini ko'rsatib, keyin asta-sekinlik bilan ularning xulq-atvoridagi salbiy holatlarni bartaraf etishga, tevarakatofga qiziqishlarini oshirib borishga astoydil harakat qilish lozimligini uqtirish kerak. Ota-onalarni maktabgacha ta'limga jalb etish maqsadida turli xil to'garaklar, tadbirlar, davra suhbatlari, savol-javob kechalari, guruhiy va umumiy ota-onalar yig'ilishlari, ochiq eshiklar kunini tashkil etish diqqatga sazovor holatlardir.

Maktabgacha Ta'lim Tashkilotining maqsadi: bolalarni o'qitish, tarbiyalash, qarab turish va parvarish qilish jarayonida paydo bo'ladigan tomonlarning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini sezilari amalga oshiruvchi ta'lim - tarbiya jarayonini olib borishdir. Maktabgacha Ta'lim Tashkiloti maktabgacha ta'lim ustaviga muvofiq bo'lgan zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydi. Bolalar hayotini muhofaza qilish va sog'lig'ini mustahkamlashga doimo g'amxo'rlik qiladi. Maktabgacha tarbiya yoshining dastlabki bosqichlarida bolalarda tasavvur ta'limi bo'ladi. Hayotiy tajribaning ortib borishi va tafakkurning rivojlanishi bilan ijodiy xayol tarkib topadi. Kichik maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun ko'rgazmali-harakatli, ko'rgazmali-obrazli tafakkur xosdir. Buning asosida so'z, mantiqiy tafakkur, tushunchali tafakkur rivojlantiriladi. Tarbiyachi bolalarda tafakkur faoliyatini tarkib toptirishi, bu hodisalarni, voqealarni chuqur anglab olish, ularning muhim bo'lgan va muhim bo'lmagan tomonlarini ajratishga o'rgatishi lozim. Maktabgacha Ta'lim Tashkiloti o'z navbatida ota-onalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishganlar. Bu esa bola tarbiyasida oila bilan hamkorlikning eng samarali usullaridan biridir. Shunday ekan bola tarbiyasi bir vaqtning o'zida “Maktabgacha ta'lim”, “Oila” va “Jamiyat” nuqtai- nazarida shakllanib boradi. Biz oilani “davlat ichra kichik davlat”- deb ataymiz. Unda yangi inson, ya'ni davlatning yangi bir vakili dunyoga keladi. Kichik davlat - oila esa bu inson uchun dastlabki hayot dorilfununi bo'ladi. Shunday ekan bola tarbiyasi bir vaqtning o'zida “Maktabgacha ta'lim”, “Oila” va “Jamiyat” nuqtai- nazarida shakllanib boradi. Biz oilani “davlat ichra kichik davlat”- deb ataymiz. Unda yangi inson, ya'ni davlatning yangi bir vakili dunyoga keladi. Kichik davlat - oila esa bu inson uchun dastlabki hayot dorilfununi bo'ladi.

Shunday ekan bola tarbiyasi bir vaqtning o'zida "Maktabgacha ta'lim", "Oila" va "Jamiyat" nuqtai- nazarida shakllanib boradi. Biz oilani "davlat ichra kichik davlat"- deb ataymiz. Unda yangi inson, ya'ni davlatning yangi bir vakili dunyoga keladi. Kichik davlat - oila esa bu inson uchun dastlabki hayot dorilfununi bo'ladi.

Hozirgi vaqtda bolalar ta'limi tobora murakkablashib borayotgan va ko'p qatlamli jarayonga aylanib bormoqda. Bu jarayon ham oila, ham jamiyatning e'tiborini talab qiladi. Biroq ba'zan shuni unutib qo'yamizki, har bir bolaning kelajakdagi rivojlanishi va muvaffaqiyatiga poydevor qo'yilishi maktabgacha ta'lim davrida bo'ladi. Bu o'rinda oila va ijtimoiy tarbiyaning o'zaro ta'siriga, ularning bola xulq-atvori va qadriyatlarining shakllanishiga ta'siriga e'tibor berish kerak.

Hozirgi vaqtda bolalar ta'limi tobora murakkablashib borayotgan va ko'p qatlamli jarayonga aylanib bormoqda. Bu jarayon ham oila, ham jamiyatning e'tiborini talab qiladi. Biroq ba'zan shuni unutib qo'yamizki, har bir bolaning kelajakdagi rivojlanishi va muvaffaqiyatiga poydevor qo'yilishi maktabgacha ta'lim davrida bo'ladi. Bu o'rinda oila va ijtimoiy tarbiyaning o'zaro ta'siriga, ularning bola xulq-atvori va qadriyatlarining shakllanishiga ta'siriga e'tibor berish kerak. Ota-onalar, o'qituvchilar va davlat muassasalarining o'zaro hamkorligi bolalarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan ko'plab afzalliklarga ega: 1. Kompleks rivojlanish: Ushbu uch tomonning hamkorligi bolaning yanada to'liq va kompleks rivojlanishiga imkon beradi. 2. Ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish: Turli xil ijtimoiy muhitlar bilan muloqot qilish bolalarga muloqot, hamkorlik, empatiya va jamoaviy ish kabi ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Bola turli xil muloqot uslublarini o'rganadi va turli ijtimoiy vaziyatlarga moslashadi. 3. Shaxsiy ehtiyojlarni qo'llab-quvvatlash: Ota-onalar va o'qituvchilarning birgalikdagi e'tibori har bir bolaning individual ehtiyojlari va xususiyatlarini yaxshiroq tushunishga imkon beradi. Bu esa har bir bolaga ta'lim va tarbiya usullarini moslashtirish va unga zarur yordam va rag'batlantirish berish imkonini beradi. 4. O'zaro munosabatlarni mustahkamlash: ota-onalar, o'qituvchilar va davlat muassasalarining o'zaro hamkorligi ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashga yordam beradi. Bu bolaning muvaffaqiyatli rivojlanishiga hissa qo'shadigan qulay ishonch, o'zaro tushunish va hamkorlik muhitini yaratadi. 5. Har tomonlama ta'lim va tarbiya: bolalar ham oila muhitida, ham maktabgacha ta'lim muassasasida ijtimoiy hayot va jamiyatning turli tomonlarini o'rganish imkoniyatini oladi. Bu uning bilimni boyitadi, tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi va atrof-muhitga har tomonlama qarashni shakllantirishga yordam beradi. Shunday qilib, ota-onalar, o'qituvchilar va davlat muassasalarining o'zaro hamkorligi bolaning muvaffaqiyatli rivojlanishini, uning ijtimoiy muhitga moslashishini va shaxsini shakllantirishning asosiy omilidir. [4]

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 22.12.2020 yildagi 802-son
2. Ta'lim fidoiylari. Abdurashitova Dildora Farxod qizilISSN 2180-2130MAY(2022)
3. Xudoyberganov Farruh Quvondiqovich Xorazm viloyati Xanqa tuman 32-DMTT direktori. «Maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarini rivojlantirish: amaliyot va xorijiy tajriba» respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi 2024 yil 23-24 may